



INVESTITSIYA SIYOSATINING AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING
RO'LINI OSHIRISH BORASIDA OLIMLARNING ILMIY ISHLARI BO'YICHA
ADABIYOTLAR TAHLILI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

magistranti

Asamova Zilola Saidaxror Qizi

Investitsiya siyosatining amalga oshirishda davlatning ro'lini ishirish mavzusi bo'yicha iqtisodiy adabiyotlar tahlili hamda dunyo olimlari tomonidan keltirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, qulay investitsiya muhitini shakllantirishda davlatning rolini oshirish yo'llarini rivojlantirish borasida qator samarali takliflar mavjud.

Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hudular (EIH) faoliyatini chuqur va har tomonlama o'rghanish, asosan, XX asrning 70-yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyoti, normativ hujjatlar, amaliyotda EIHni bildiruvchi xilma-xil terminlar qo'llaniladi: «erkin iqtisodiy hudud», «texnologik hudud», «erkin bojxona hududi», «maxsus iqtisodiy hudud», «erkin tadbirkorlik hududi», «erkin eksport hudud», «erkin savdo hududi», «bojsiz hudud», «qo'shma tadbirkorlik hududi». XX asrning 80- yillarida EIHlarning 20 ta, 90-yillarida 30 ta shakli bor, deb hisoblashgan. Amerikalik olimlar M.Fraze va R.Ren tomonidan bildirilgan fikrlar R.I.Zimenkov tadqiqotlarida quyidagicha talqin etilgan: “Erkin iqtisodiy zona iqtisodiy rivojlanish jabhasida insoniyatning eng qadimiy va shu bilan birga, eng zamonaviy g'oyalaridan biridir. Erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyatini ko'rsatish uchun ularning jahon xo'jaligining mamlakat ichidagi “orollari”, xorijiy investitsiya, texnologiyalar, jahon xo'jaligiga uyg'unlashib ketishda “erkin eshiklar” deb nomlanuvchi yangi siyosatdir”(Zimenkov 2008), deb nomlashadi.

Y.Avdokushin va Y.Gorbunova aytganidek, erkin iqtisodiy hududlarni «maxsus iqtisodiy hudud» deb aytish kerak, degan tushunchaga qo'shila olmayman. Bu hududlarning eng muhim xususiyati – boshqa hududlarga nisbatan davlat aralashuvining kamayishi va iqtisodiy erkinlikning ortishi degan fikrga qo'shilaman (Avdokushin 1993). A.Bazil va D.Germedislarning EIHga bergen ta'rifi ham bu fenomenning ayrim qirralarini yechib beradi: EIH maxsus maqomga ega bo'lgan ma'muriy jihatdan, ayrim holda geografik jihatdan aniqlangan maydon bo'lib, eksport ishlab chiqarishga mo'ljallangan uskuna va



boshqa tovarlarni erkin import qilishni ko‘zda tutadi. Maxsus maqom, odatda, xorijiy investorlar uchun imtiyozlar beradigan qulay huquqiy sharoitlarni va soliq solish tartibini o‘z ichiga oladi (Agarkova 2000). Xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida “erkin iqtisodiy zona” kategoriyasiga yaxlit tushuncha shakllanmaganligini ko‘ramiz.

J.Umirzoqovning fikricha, “maxsus iqtisodiy zona mamlakat yoki muayyan mintaqasi hududida va unga nisbatan anklav tarzda joylashgan alohida ajratilgan hudud bo‘lib, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy- iqtisodiy va ma’muriy imtiyozlar qo‘llaniladigan maxsus tartibotli hudud”(Umirzoqov 2022) hisoblanadi. Bundan tashqari S.Bozorovning tadqiqotlarida “erkin iqtisodiy zona – davlatning iqtisodiy va jo‘g‘rofiy jihatdan qulay hududida tashkil etiladigan, mamlakat iqtisodiyotini kompleks tarzda rivojlantiradigan va uning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvini ta’minlaydigan, alohida imtiyozlar majmuini o‘z ichiga olgan rejimga ega bo‘lgan hamda chet el elementi bilan murakkablashgan turli huquqiy munosabatlar amalga oshiriladigan maxsus ajratilgan hudud”(Bozorov 2018) sifatida ta’riflangan. Xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan fikrlarda, asosan, erkin iqtisodiy zonalarning geografik jihatdan joylashuvining alohida ekanligiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Ammo ushbu hududlarning investitsiya muhitini rivojlantirishdagi ahamiyati e’tibordan chetda qolgan. Shu sababli aytish mumkinki, “erkin iqtisodiy zona mamlakat hududida tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiyalar oqimini faollashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida imtiyozli rejimlar amal qiluvchi maxsus ajratilgan hududdir”. Yuqorida ta’kidlanganidek, erkin iqtisodiy zona respublika hududlarining investitsiya muhitini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o‘z navbatida, “investitsiya muhiti” kategoriyasini ilmiy tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Investitsion muhitning sog‘lomligi, jozibadorligini davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks etuvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali ham baholash mumkin. Jahon bankining (JB) klassifikatsiyasiga ko‘ra, Singapur davlati eng yuqori daromadga ega bo‘lgan davlatlar qatoriga kiradi. Investitsion iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan bittasi inflyatsiya darajasidir. Inflyatsiya darjasini qanchalik past bo‘lsa, investitsion jozibadorlik shunchalik darajada yuqori bo‘ladi. 2005 yilda Singapurda inflyatsiya darjasini 0,5 foizni,



2019 yilga kelib esa 0,4 foizni tashkil etdi. Davlatning investitsion muhit jozibadorligiga baho berishda, bugungi kunda eng ko‘p tarqalgan usullardan biri Doing Business indeksi, Global raqobatbardoshlik indeksidir.(Zaynuddinov 2020)

Respublikamiz iqtisodchi olimlarining qator ilmiy tadqiqot ishlarida “investitsiya muhiti” va “investitsiya iqlimi” kategoriyalari o‘zaro sinonim tushunchalar (kategoriyalar) sifatida talqin etilgan. Bu borada D.G‘ozibekov va E.Nosirovning fikricha, “Investitsiya iqlimi keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma’lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi”(G‘ozibekov 2007). Shuningdek, Sh.Mustafaqulov ham “investitsion iqlim” va “investitsiya muhiti”ning borasida olib borgan ilmiy izlanishlarida “investitsion iqlim – ichki va tashqi investitsiyalarning kirib kelishiga ta’sir ko‘rsatadigan yalpi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy sharoit” ekanligini alohida ta’kidlab, investitsiya muhitining har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asnosida investitsiya tavakkali baholanishiga e’tibor qaratadi. Olimning fikricha, investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir-biriga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investoring tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining oshishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.(Mustafaqulov 2017)

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida erkin iqtisodiy hudular omilidan foydalanish yuqori natijalarga erishishning uchun asosiy faoliyatlaridan biri bo‘lib bormoqda. EIHLar faoliyati vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘laridan samarali foydalanishdan iborat. Xozir jaxonda 5 mingdan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, ular turli-tuman maqsadlarni amalga oshirishi, muayyan vazifalarni bajarishi uchun tashkil qilingan.(Abduqahorov 2022)



Oldinga qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqib bu vazifalar iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik islohotlarni amalga oshiradi. Quyida keltirib o‘tadigan vazifalarni mazkur zonalarning asosiy maqsadlari sifatida ko‘rishimiz mumkin:

- maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilg‘or texnologiyalarni jalg‘ etish;
- tayyor maxsulot eksportini kengaytirish uchun mehnat taksimoti afzalliklaridan foydalanish;
- yangi ish joylarini yaratish;
- tashkil kilish, boshkarish va moliyalash soxasida jaxon tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi misolida erkin iqtisodiy zonalarning maqsadlariga qo‘shimcha qilib quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- import o‘rnini bosuvchi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish tarmog‘larini yo‘lga qo‘yish;
- mamlakat tashqi savdo aylanmasi natijasida musbat qoldiqqa erishish va uni barqarorligini ta’minlash;
- barcha hududlarni, ayniqsa, tarixiy ahamiyatga molik shaharlarning sanoatini rivojlantirish;
- aholi daromadliligin doimiy, uzlusiz oshirish va boshqa ko‘plab maqsadlar ko‘zlangan.(Karimqulov 2019)

Yuqoridagi nomlari zikr etilgan iqtisodchi-olimlarning tadqiqotlarida iqtisodiy rivojlanish davrining hozirgi bosqichida mamlakatimizda qulay investitsion muhitni shakllantirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda kapital bozorining rolini oshirish yo‘llarini rivojlantirishda yirik moliyaviy instrumentlar paketiga davlat egalik qilayotganligi, aksiyalarning aylanuvchanligi va likvidligi past darajada ekanligi, yuqori riskning mavjudligi, qimmatli qog‘ozlar bozorida ikkilamchi savdo aylanmasi ulushining pastligi, investitsiya siyosatining amalga oshirishda davlatning ro‘lini ishirish mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borilishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati



1. O. Y. Ermolovskaya, T. A. Shcherbina. Features of carrying out IPO of the company in Russia. // II International Scientific Conference GCPMED 2019 "Global Challenges and Prospects of the Modern Economic Development", 2019. - 6 pages.
2. Lyuvutin, P.P. O.V. Fetser Pervichnye publichnye razmeshcheniya aksiy: obzor issledovaniy/ P.P. Lyuvutin, O.V Fetser //Jurnal Korporativnye finansy - 2007. - №1. - s. 145-189.
3. Welch I., Ritter J. A review of IPO activity, pricing and allocations, Yale ICF Working Paper, #02-11, Feburary 8, 2002.
4. Thomas Chemmanur, Gang Hu, Jiekun Huang. The Role of Institutional Investors in Initial Public Offerings. // The Review of Financial Studies, November 2010. - P.46.
5. Geddes P. IPO i posleduyushchie razmeshcheniya aksiy / [Per. S angl. Yu. Kostrubova]/R. Geddes. - M.: Olimp-Biznes - Ekmos, 2008. - s. 352.: il.
6. Ufuk Giibilmez, Tomas 6 Briain. Bidding styles of institutional investors in IPO auctions. // Journal of Financial Markets, 2 June 2020, 100579. — P.21.
7. Chui Zi Ong, Rasidah Mohd-Rashid, Kamarun Nisham Taufil-Mohd. Do institutional investors drive the IPO valuation? // Borsa Istanbul Review, 19 May 2020.
8. Hsin-Yi Huang, Min-Hsien Chiang, Jia-Hui Lin, Yun Lin. Fixed- price, auction, and bookbuilding IPOs: Empirical evidence in Taiwan. // Finance Research Letters 22 (2017) 11-19.